

ROSSIYA QUROLLI KUHLARI TOMONIDAN JANUBIY OSETIYA UCHUN GRUZIYA DAVLATIGA QARSHI OLIB BORILGAN JANGOVAR HARAKATLAR (OPERATSIYASI) TAJRIBALARI

*Chirchiq OTQMBYu
Taktika va umumqo 'shin fanlar
kafedrası boshlig 'i
podpolkovnik G'.T. To'raev*

2008 yil 7-11 avgust kunlari Rossiya va Gruziya o'rtasida Janubiy Osetiya uchun bo'lib o'tgan qisqa urushda Rossiya va NATO o'zlarining yangi qurollari va taktikalarini sinovdan o'tkazishdi.

Bu urush Rossiyaning o'zining hududining tashqarisida birinchi bor jangovar harakatlar olib borishi edi va tarixda «BESH KUNLIK URUSH» deb nom oldi.

Tarixga nazar tashlasak Kavkaz cho'qqisining har ikkala tomonida joylashgan osetinlar XVIII asrning oxiri XIX asrning boshida Rossiya imperiyasining tarkibiga kirdi. Sovet hukumati davrida osetin xalqining ma'muriy bo'linishi saqlanib qoldi. Janubiy Osetiya avtonom viloyati 20 aprel 1922 yilda tashkil etilib Gruziya sovet sotsialistik respublikasi tarkibida kiritildi. Markazi Sxinvali shahri. SHimoliy Osetiya 1924 yili 7 iyulda Rossiya tarkibida SHimoliy Osetiya ASSR bo'lib kiritildi. Gruziya va Osetiyaning munosibatlarning keskinlashuvi Sovet Ittifoqining oxirgi yillarida milliy harakatlarning faollashishi turtki bo'ldi. 1989 yildan boshlab mintaqada uch marotaba (1991-1992, 2004, 2008 yillar) yirik masshtabli qonli qurolli nizolar avjiga kirdi. [1]

GRUZIYANING URUSHDAGI MANFAATI

Harbiy yo'nalishida:

1) Janubiy Osetiyada separatistik kuchlarni tor-mor etish va bir vaqtning o'zida Rossiyaning tinchlikparvar kuchlarini siqib chiqarish.

2) Tog'li sharoitlarda jang olib borishda AQSH va NATO ning konsepsiyasini tekshirib ko'rish.

3) Jangovar sharoitlarda Qurolli kuchlaridagi modernizatsiyalashtirilgan qurol- aslaha va texnikalarini sinab ko‘rish hamda Isroil harbiylari yordami bilan tashkil etilgan “tarafdorlar markazining” harakatini amalda sinash. [1]

Siyosiy yo‘nalishida:

- 1) Rossiyaning Kavkaz mamlakatlarida ta’sirini pasaytirish.
- 2) Tezkorlik bilan Gruziyaning NATO tashkilotiga kirishida muzakoralar o‘tkazish.
- 3) Gruziya tarkibida kirishni xohlamagan osetin xalqini joylaridan surib chiqarish va Janubiy Osetiyada gruzin qochoqlarini ko‘chirish.

GRUZIYANING JANUBIY OSETIYADA BOSTIRIB KIRISH GURUHI

SHaxsiy tarkibi - 15 ming kishi.

Texnika: 90 ta tank, 40 ta O‘YUAQ, 80 ta zixrli mashinalar, 130 ta orudiya va minometlar, ZRQ «Osa», O‘YUZQ «SHilka» batareyalari, 10 ta shturm samolyotlari, 10 ta jangovar vertoletlar, 4 ta UUA «Germes-450». Gruziyaning Quruqlikdagi qo‘shinlarining texnikalari, o‘q otar qurollari va aloqa vositalari Rossiya, Abxaziya va Janubiy Osetiyaga nisbatan zamonaviy bo‘lib ustun edi, chunki AQSH va NATO tomonidan ta’minlangan edi. [1]

JANUBIY OSETIYA TUZILMALARI

SHaxsiy tarkib - 2500 kishi.

Texnikasi: 15 ta tank - T-55 i T-72, 52 ta - BTR, BMP va BRDM, 24 ta – O‘YUAQ «Gvozdika» va «Akatsiya», 12 ta - 122-mm gaubitsa, 30 ta - minometlar, 6 ta - RSZO «Grad», 6 ta - ZRQ «Osa», 3 ta - ZRK «Tunguska», 3 ta - O‘YUZQ «SHilka», 10 ta - ZU-23-2; 100 ta PZRK «Iгла» va «Strela»; 4 – ta Mi-8 vertoleti. [1]

2008 yil iyul oyining ikkinchi yarmida Gruziya va AQSH Janubiy Osetiyani o‘ziniki qilib olish maqsadida katta mashtabli o‘quvni boishlagan. Bunday harakatlardan xabar topgan Rossiya bosh razvedka boshqarmasi extimoli bo‘lishi mumkin bo‘lgan harakatlarga qarshi «KAVKAZ-2008» katta mashtabli o‘quvni boishlagan. 7 - 8 avgust o‘tar kechasi Gruziya Janubiy Osetiya ma’muriy markazi Sxinvaliga D-30 va 27 ta «GRAD» tizimlaridan artilleriya tayyorgarligi

boshlangan, shundan soʻng piyoda qoʻshilmalari va tanklarning qoʻllab quvvatlashi bilan Janubiy Osetiyaning maʼmuriy markazi boʻlgan Sxinvali yoʻnalishida zarba berishgan. Gruziyaning olib brogan operatsiyasi gʻoyasiga koʻra artilleriya zarbalaridan keyin Sxinvali shahriga bir vaqtning oʻzida ikki yoʻnalishdan tutashtiruvchi zarba berish rejalashtirilgan: Sharqiy yoʻnalishdan Gori a.p. dan Tamarasheni a.p. - 4 MPBR kuchi bilan, Gʻarbiy yoʻnalishdan Seloni a.p. dan Achibeti a.p. - 3 MPBR kuchi bilan. Keyinchalik Sxinvalida nazorat oʻrnatib ikkinchi eshelonni jangga kiritib hujumni Djava shahri markazi va Rok davon yoʻnalishida rivojlantirish hamda operatsiyaning birinchi sutkasining oxirida Gruziya va Rossiyaning davlat chegarasida chiqish edi. Operatsiyaning davomida aviatsiya va maxsus tayinlangan boʻlinmalaridan faol foydalanish moʻljallangan. Operatsiyaga «Toza maydon» nomi berilgan. Gruziyaning rejasi butun Janubiy Osetiyani etnik millat va elatlardan tozalash edi. Bu operatsiyada Gruziya qoʻshinlarini boshqarish uchun Gori shahrida qoʻmondonlik punkti tashkil etilgan.

[1]

Rossiya Gruziyaning gʻoyasini oldindan koʻra bilib ularga qarshi operatsiyani boshlagan. Avval qoʻriqlikdagi qoʻshinlari bilan Rok davon egallab olgan va Sxinvali shahriga qoʻshinlarini torta boshlagan, Abxaziyaga 7-Desant-shturmchi diviziyasini olib kirgan, Qora dengiz tomondan Chernomor flotini Gruziya chegara yaqiniga olib kelgan, Harbiy kosmik kuchlari bilan Gruziyaning Gori a.p. aviabazasini, Vaziani va Marneuli a.p. larining harbiy aerodromlaridagi Su-25, L-39 samoletlariga havodan bomba zarbalarini berishgan hamda Gruziya markazi Tbilisi shahridan 40 km uzoqlikda joylashgan Radiolokatsion tizimini safdan chiqarishgan. SHu bilan birga Gruziyaning OAV ga xaker xurujlar oʻtkazishgan. Rossiya tomonidan bundan qarshi zarbani kutmagan Gruziyaning sobiq prezidenti Mixail Sakashvili Janubiy Osetiyadan oʻz qoʻshinlarini olib chiqib ketishga va bu urushda magʻlubiyatga uchraganini tan olgan. [1]

Urushning oqibati

Gruziya: 412 ta halok boʻlgan harbiy xizmatchilar, 228 ta tinch aholi 1747 ta yaralanganlar, 24 ta nom nishonsiz yuqolganlar.

Rossiya: 67 ta halok bo'lganlar, 283 yaradorlar.

Janubiy Osetiya: 162 ta harbiy xizmatchilar, 2000 ta gacha ting aholi

Abxaziya : 1 ta harbiy xizmatchi va 2 ta yarador.

Besh kunlik urushda Gruziyninga moliyaviy tomondan zarari 250 million AQSH dollair atrofida baholangan bo'lsa, Rossiyaning moliyaviy tomondan zarari 400 million AQSH dollair tashkil etgan. [1]

TOMONLARNING MOJARODAGI QUCHLI TOMONLARI

Gruziya qurolli kuchlari:

1. Tezkorlik va taktik niqoblashga hamda qo'qqislikdan zarba berish strategiyasi;
2. Kuchli radiolokatsion va radioelektron razvedkasi;
3. Tungi paytda jangovar harakatlarni olib borilishini puxta bilishlari;
4. Quruqlikdagi qo'shinlarda zamonaviy sputnikli navigatsiya, tungi ko'rish moslamalarini borligi va qo'llab bilishlari;
5. Kosmosdan olingan yangi va katta hajmdagi rasmlar oldindan tayyorlangan topografik kartalarning borligi va ulardan unumli foydalanishlari;
6. Keng miqiyoda pistirma va razvedka-qo'poruv harakatlarini olib borishlari. [1]

Rossiya qurolli kuchlari:

1. Zamonaviy maxsus razvedka vositalarini qo'llanishi;
2. Janubiy Osetiya qurolli tuzilmalarining yuqori jangovar tayyorgarligi va ruhiy holati;
3. Rossiya armiyasining (tinchlikparvar bataloni) shahar sharoitida jang olib borish usullarini puxta bilishlari va harakatlanishlari;
4. Keng miqiyoda manyovr turlarini qo'llab, kam kuch vositalar bilan dushmanni sarosimaga solib qo'yish va chalg'itish. [1]

TOMONLARNING MOJARODAGI ZAIF TOMONLARI

Gruziya qurolli kuchlari:

1. Razvedka bo'linmalarining malakalari kamligi va etarli ko'nikmaga ega emasliklari;

2. Uchuvchisi yo‘q apparatlarini boshqarish va zarbalarini korrektirovka qila bilmasliklari;

3. Harbiy xizmatchilarni mudofaa, qurshovdan chiqish va chekinish jangini olib borish malakalari pastligi;

4. Shaxsiy tarkibning ruhiy holatining juda pastligi. [1]

Rossiya qurolli kuchlari:

1. Uchuvchisi yo‘q apparatlarini cheklangan miqdorda qo‘llanilishi;

2. Razvedka va maxsus tayinlangan bo‘linmalarni mo‘ljallanishi bo‘yicha qo‘llamaganliklari;

3. Razvedka va maxsus tayinlangan bo‘linmalar bajaradigan vazifalarni umumqo‘shin bo‘linmalarga yuklatilishi;

4. Marsh uyushtirishda safar qo‘riqlovni sust tashkil etilishi;

5. Aviatsiya zarbasini va artilleriya o‘tlarini korrektirovka qilish uchun mutaxassislarini yo‘qligi va malakalarini pastligi.

6. Harbiy havo kuchlarni cheklangan miqdorda qo‘llanilishi. [1]

XULOSA

1. Razvedka va maxsus tayinlangan bo‘linmalarni mo‘ljallanishi bo‘yicha qo‘llash.

2. Keng miqiyoda zamonaviy raqamli vositalardan (GPS, GLONAS), qurol yaroq, optik priborlar, jangovar va maxsus taxnikalarni puxta o‘zlashtirish, ulardan to‘g‘ri foydalanish va qo‘llash;

3. Taktik tayyorgarlik mobaynida asosiy e‘tiborni shahar va tog‘li sharoitda jang olib borishni, boshqa qo‘shin turlari bilan xamkorlik qilish usullarini puxta o‘zlashtirish va o‘rgatish;

4. Uchuvchisi yo‘q apparatlarini jangda qo‘llashni, aviatsiya zarbalarini va artilleriya o‘tlarini korrektirovka qilishni o‘rganish va jangda qo‘llay bilish;

5. Hozirgi zamonaviy jangda har bir harbiy xizmatchidan raqamli vositalar, qurol yaroq, optik priborlar, jangovar va maxsus taxnikalarni moxirona qo‘llay bilishni, maqsadli g‘alabaga erishish uchun uyushqoqlikni, yuqori ma‘naviy ruhiy

ega bo‘lish va jismoniy kuchlarni to‘la safarbar etishni, bukilmas irodani, metindek intizomni va jangovar hamjihatlikni talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Интернет сайти. <http://www.пятидневная война>.